

## O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA HOLAT BILDIRUVCHI SO‘ZLAR SEMANTIKASI

*Mattiyev Abdulaziz Oktyabrjon o‘g‘li  
Andijon davlat chet tillari instituti*

**Annotatsiya:** Holat alohida kategoriya bo‘lib, uni atovchi so‘zlar turli turkumlarga mansub bo‘lishi ham mumkin. Ishning keyingi bo‘limida holat bildiruvchi so‘zlar va ularning lisoniy xususiyatlari haqida so‘z yuritamiz.

**Kalit so‘zlar:** *Kategoriya, holat, lug‘at*

**Аннотация:** Падеж – это отдельная категория, а существительные могут относиться к разным категориям. В следующем разделе работы мы поговорим о словах, выражающих ситуацию, и их языковых особенностях.

**Ключевые слова:** *Категория, состояние, словарь.*

**“Holat” kategoriya sifatida**

**Kategoriya** (yun. kategoria – mulohaza, fikr; belgi) (falsafada) – voqelikdagi hodisalar va bilishning muhim, umumiy xususiyat hamda munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalar. Kategoriya bilish va ijtimoiy amaliyot tarixiy taraqqiyotining umumlashgan natijasi bo‘lib vujudga kelgan.

Bu so‘z qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, “izohlash”, “tushuntirish”, “ko‘rsatish” degan ma’nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardan ilmiy tadqiqot yo‘nalishiga aylangan. Falsafa tarixida ularni birinchi bo‘lib, Aristotel ta’riflab bergan.

Manbalarda aytilishicha, kategoriya haqidagi ilk ta’limot qadimgi Hindistonning ayrim falsafiy maktablarida uchraydi. Yunon faylasufi Platon dunyodagi narsa va hodisalar tushunchalarning ifodasi shaklida hosil bo‘ladi deb hisoblaydi. Aristotel o‘zining “Kategoriya” asarida kategoriyalarni ob’ektiv reallikning in’ikosi hamda eng yuksak umumlashmasi deb izohlaydi. Aristotel 10 ta kategoriya to‘g‘risida ma’lumot beradi: mohiyat, miqdor, sifat, munosabat, joy, vaqt, qoida, holat, xatti-harakat va qiynalish. Keyinchalik Arastu “Metafizika” asarida “mohiyat”, “holat” va “munosabat” kategoriya sifatida ham izohlagan. Ko‘rinadiki, holat falsafada alohida kategoriya sifatida qaraladi.

Aristotelning kategoriya haqidagi ta’limoti Kindiy, Forobiy, Ibn Sino tomonidan rivojlantirildi. O‘rta asr sxolastikasi 6 ta kategoriya bir-biridan farq qiladi: borliq (mohiyat), sifat, miqdor, harakat (o‘zgarish), munosabat, egalik. Bu yerda holat alohida kategoriya sifatida ajratilmagan.

Dekart va Dukk 3 ta kategoriya farqlaydi: substansiya, holat (modus) va munosabat.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, faylasuflar ta’limotida holat alohida kategoriya sifatida ajratiladi.

Holat kategoriya turli fanlarda turli ma’noni ifodalaydi.

Fizikada, klassik mexanikada faza fazosidagi nuqtani bildirsa, statistik klassik mexanikada faza fazosida ehtimollik zichligini taqsimlash funksiyasini; kvant tizimining holati to‘lqin funksiyasi yoki vaqtning ma’lum bir momentida tizimni tavsiflovchi kvant sonlari to‘plami bilan aniqlangan zichlik matritsasi bilan tavsiflanadi.

Informatika fanida avtomatlar nazariyasida “avtomatning holati” tushunchasi avtomat berilgan algoritmi amalga oshirishda avtomat tomonidan yaratilgan belgilarning kirish tilining belgilariga funksional bog‘liqligini o‘rnatish uchun ishlatiladi. Dasturlashda ob’jektning harakatini belgilovchi atributlar to‘plamini ifodalab keladi.

“Holat” tushunchasining atama sifatidagi ma’nosini o‘rganmoqchi bo‘lganimizda, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida ushbu tushunchaning lug‘at so‘zligidan joy olmaganligi ma’lum bo‘ldi.

“Holat” soʻzi Oʻzbek tilining izohli lugʻatida quyidagicha sharhlanadi:

**HOLAT** [a. – hol, ahvol; tuzilish] **1** Yuzaga kelgan, mavjud boʻlgan vaziyat, ahvol. Jangovor holat. Harbiy holat. *Shahar qamal holatda. Ishlayotgan odamlar uni [Olaxoʻjani] bu holatda koʻrib, juda hayron boʻlib, ishdan toʻxtab qoldilar.* P.Tursun, Oʻqituvchi. *Hamma sergak tortdi, unga qulogʻini tutib jim qoldi. Bu holatdan foydalangan shayx soʻziga pardozi berib, davom etdi.* K.Yashin, Hamza. *Shyerali ham bu toʻqnashuvdan Toʻlgʻonoy bilan yolgʻiz qolgandagi holatga tushdi.* S.Karomatov, Oltin qum.

**2** Jismoniy yoki ruhiy jihatdan boʻlgan ifoda, qoʻrinish; qiyofa, avzo. Asabiy holat. Kulgili holat. Ayanchli holat. *Men ushng holatidan nimadir ichini kuydirayotganini... bshib turardim.* S.Ahmad, Yulduz. *Uning majaqlanib, tanib boʻlmas holatga kelgan yuzini oq shohi bilan yopib qoʻydilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bir holatda Achinarli, nochor, puturdan ketgan ahvolda. Qandolat bibi bir holatda boʻlib choʻkib qolgan, rangi zaʻfaron.* R.Fayziy, Hazrati inson. *Endi bukchayib qopti. Kiyimlari ham bir holatda.* S.Ahmad, Ufq.

Jon holatda q. jon.

**3** shv. Kuch-quvvat, darmon, mador; qudrat. *Gʻozning bir oyogʻi singan, bir qanoti mayib boʻlgan, oʻq tegib holati ketib, shu yerga yiqilgan.* “Alpomish”. *Endi mendan holat ketdi, bek Shakar, Bu choʻllarda endi qoldim xoru zor.* “Shirin bilan Shakar”.

Izohli lugʻatda berilgan taʻrifdan koʻrinadiki, “holat” leksemasi koʻp maʼnoli boʻlib, yuzaga kelgan, mavjud boʻlgan vaziyat, ahvol (1), jismoniy yoki ruhiy jihatdan boʻlgan ifoda, qoʻrinish; qiyofa, avzo (2), kuch-quvvat, darmon, mador; qudrat (3 shv.) kabi maʼnolarni anglatadi.

“Holat” soʻzning ingliz tilidagi ekvivalenti “condition” va “state” boʻlib, ular ingliz tili izohli lugʻatlarida quyidagicha ifodalanadi:

**CONDITION** *noun* the particular state that something or someone is in (holat – biror narsa yoki kimdir boʻlgan muayyan holat):

*Mum's still got our pram - it's very old, but it's in perfect condition.*

*They left the flat in a terrible condition - there was mess everywhere.*

*The hospital say her condition (= state of health) is improving slowly.*

*He's in no condition (= he is too sick or too drunk) to drive home.*

**CONDITIONS** [*plural*] the physical situation that someone or something is in and affected by (kimdir yoki biror narsa boʻlgan va taʻsir qiladigan jismoniy holat): weather conditions.

**CONDITION** any of different types of diseases (har xil turdagi kasalliklar): to suffer from a heart/skin condition (yurak/teri kasalligidan aziyat chekmoq); a medical condition (tibbiy holat).

**CONDITION** *verb* (TRAIN)

to train or influence a person or animal mentally so that they do or expect a particular thing without thinking about it (odamni yoki hayvonni oʻylash yoki oʻylamasdan maʼlum bir ishni qilish yoki kutish uchun ruhiy jihatdan taʻsir qilish):

*a conditioned reflex/response*

[+ to infinitive] *Pavlov conditioned dogs to salivate at the sound of a bell.*

*Women were conditioned to expect lower wages than men.*

Yuqoridagi izohlardan koʻrinadiki, Kembrij lugʻatida *condition* soʻzi polisemantik va polifunksional soʻz sifatida taʻriflanadi, yaʼni ushbu soʻz ot va feʼl turkumi sifatida bir necha maʼnolarni ifo etishi koʻrsatiladi.

**CONDITION** *noun*

**1a:** a premise upon which the fulfillment of an agreement depends : STIPULATION

**b** *obsolete* : COVENANT

**c:** a provision making the effect of a legal instrument contingent upon an uncertain event must meet the terms and *conditions* of the contract *also* : the event itself

**2:** something essential to the appearance or occurrence of something else : PREREQUISITE: such as

**a:** an environmental requirement Available oxygen is an essential *condition* for animal life.

**b:** the clause of a conditional sentence

**3a:** a restricting or modifying factor : QUALIFICATION

**b:** an unsatisfactory academic grade that may be raised by doing additional work

**4a:** a state of being the human *condition*

**b:** social status : RANK

**c:** a usually defective state of health a serious heart *condition*

**d:** a state of physical fitness or readiness for use The car was in good *condition*. exercising to get into *condition*

**econditions plural:** attendant circumstances poor living *condition* safe working *conditions*

**5a obsolete :** temper of mind

**b obsolete :** TRAIT

**conditions plural, archaic :** MANNERS, WAYS

**CONDITION** verb

**conditioned; conditioning** \ kən-'di-sh(ə-)niŋ \

**Definition of condition (Entry 2 of 2)**

*intransitive verb*

*archaic:* to make stipulations

*transitive verb*

**1:** to agree by stipulating

**2:** to make conditional

**3a:** to put into a proper state for work or use

**b:** AIR-CONDITION

**4:** to give a grade of condition to

**5a:** to adapt, modify, or mold so as to conform to an environment culture traditional beliefs *conditioning* a child's attitude

**b:** to modify so that an act or response previously associated with one stimulus becomes associated with another.

**STATE** noun a condition or way of being that exists at a particular time:

The building was in **a state of disrepair**.

She was found wandering in a confused state (**of mind**).

Give me the keys - you're not in a state to drive.

After the accident I was in a state **of shock**.

I came home to an unhappy state of affairs (= *situation*).

The kitchen was in its original state, with a 1920s sink and stove.

**STATE** verb to say or write something, especially clearly and carefully:

Our warranty clearly states the limits of our liability.

[ + (that) ] Union members stated (**that**) they were unhappy with the proposal.

[ + question word ] Please state **why** you wish to apply for this grant.

Children in the stated (= named) areas were at risk from a lack of food, the report said.

Lugʻatdagi tavsifdan koʻrinyapdiki, holat maʼnosini ifodalovchi condition va state soʻzlarining ikkalasi ham polifunksional soʻz. Ot va feʼl soʻz turkumi sifatida ish harakatning holatini bildirishini koʻrsatadi. Bu ikki soʻz maʼno jihatdan yaqin, lekin state umumiyroq soʻz, condition esa holat haqida batafsilroq tavsif beradi. State maʼlum vaqtda inson yoki narsa mavjud boʻlgan muayyan “holat” maʼnosini bildiradi (ing. stare). Masalan, sogʻlik holati, ruhiy holat, fizik narsa-buyumning agregat holati yoki kvant holat. Condition soʻzi ham holatni bildiradi, shu bilan birga shu holatni ifodalagan shart va holatni ifodalaydi (lot. *Condicere* soʻzidan). Masalan, yashash sharoitlari, mantiqiy holat, kasallik (baʼzi simptomlar bilan bogʻliq tibbiy holatni anglatadi).

Psixologiyaga oid manbalarda holat psixologik kategoriya sifatida qaraladi hamda asosan, insonning emotsional holatini ifodalab keladi.

Emotsional holatlar boshqa ruhiy jarayonlar singari miya faoliyatining natijasi yoki mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Emotsional holatlarning yuzaga kelishiga tabiatda va jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, munosabatlar, aloqalar, taassurotlar asosiy sababchidir. O‘zgarishlar o‘z navbatida, birinchidan, shaxs hayoti va faoliyatining jadallashi yoki pasayishiga, ikkinchidan, insondagi ayrim extiyojlarning paydo bo‘lishiga yoki yo‘qolishiga, uchinchidan, odam ichki organlari funksional holatlarining beqarorlashuviga olib keladi. His-tuyg‘ular uchun eng xususiyatli fiziologik jarayonlar negizi sifatida shartsiz va shartli reflekslar xizmat qiladi va ularning muayyan tizimi bosh miya katta yarim sharlari po‘stida yuzaga keladi hamda shu joyda mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kategoriyalar-uz/>
2. <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9863-2021-02-01-07-40-38>
3. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kategoriyalar-uz/>
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-том. – Б.549.
5. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/condition>
6. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/condition>
7. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/state>